

## **PIRLS dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga tizimi topshiriqlar asosida badiiy asarni tahlil qilishni o'rgatish**

Durdona Erkinovna Avazova

durdonaavazova@mail.ru

Toshkent davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlarining standartlarida qayd etilgan kompetensiyalar, o'tgan yillarda o'tkazilgan xalqaro baholash dasturlarida taqdim etilgan topshiriqlar tahlili, xalqaro baholash dasturlarini o'zida mujassamlashtirgan novatsion metodlari asosida dars ishlanmalarini ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirish kabi masalalar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lif tizimi, funksional savodxonlik, milliy rejaning maqsadi, PIRLS test topshiriqlari, o'zbek xalq maqollari, boshlang'ich sinf, jahon amaliyoti, hikoya, test topshiriqlari, kompetensiya, o'qish

## **Teaching primary school students to analyze an artistic work based on systematic assignments based on the PIRLS program**

Durdona Erkinovna Avazova

durdonaavazova@mail.ru

Tashkent State Pedagogical University

**Abstract:** This article highlights issues such as the competences noted in the standards of international assessment programs, the analysis of tasks presented in international assessment programs held in previous years, the formation of skills for the development of lesson plans based on innovative methods incorporating international assessment programs.

**Keywords:** educational system, functional literacy, the purpose of the national plan, PIRLS test tasks, Uzbek folk proverbs, primary class, world practice, story, test tasks, competence, reading

Yurtimizda xalq ta'lifi tizimida ta'lif sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiytadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 dekabrda "Xalq ta'lifi tizimida ta'lif sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish

chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-son qarori qabul qilindi. Unga ko'ra PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS xalqaro baholash dasturlari mazmun va mohiyati, Xalqaro baholash dasturlarining standartlarida (Frame Work) qayd etilgan kompetensiyalar, o'tgan yillarda o'tkazilgan xalqaro baholash dasturlarida taqdim etilgan topshiriqlar tahlili, xalqaro baholash dasturlarini o'zida mujassamlashtirgan novatsion metodlari asosida dars ishlanmalarini ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirish kabi masalalarni hal qilishga e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizdagi o'zgarishlar, barqaror rivojlanishning yangi strategik yo'nalishlari va jamiyatning shaffofligi, uni tezkor axborotlashtirish, intensivlashtirish ta'limga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirdi. Ta'limning yangi modelini joriy etish ta'limni shaxsni rivojlantirish jarayoni sifatida yo'naltirilgan. Jahon amaliyotiga asoslanib PISA xalqaro tadqiqot dasturi yaratildi.

O'rta maktabning dastlabki bosqichlarida o'quvchining ta'lim sifati va ta'limning ijtimoiy ma'nosini tushunishi, jahon ta'lim makoniga to'liq integratsiyalashuvi xalqaro ta'lim tizimini talab qiladi. 11 yillik ta'limda jahon tajribasini hisobga olgan holda, milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish va natijani to'g'ridan-to'g'ri o'rganish uchun mavzu munosabatlarini tashkil eta oladigan o'qituvchilarni tayyorlashga ustuvor ahamiyat beriladi.

Ta'lim tizimi har doim o'zgarib turadi. Ushbu o'zgarishlarning asosiy maqsadi yosh avlodni har tomonlama rivojlangan, barkamol fuqarolar sifatida tarbiyalashdir. Funksional savodxonlik ushbu maqsadga erishishga yordam beradi.

Milliy rejaning maqsadi - ta'lim sifatining izchilligi va yaxlitligini ta'minlash, o'quvchilarining olgan bilimlarini hayotga tatbiq eta olish, funksional savodxonligini rivojlantirish.

Shunday qilib, o'qituvchining bugungi asosiy vazifasi - boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, o'z-o'ziga yordam berish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning har biriga shaxs sifatida qarash va o'zlariga bo'lган ishonchni oshirish.

Boshlang'ich sinf bitiruvchi o'quvchilarini PIRLS - baholash tizimi topshiriqlari asosida badiiy asarni tahlil qilishga o'rgatishga harakat qilamiz. Unda 4-sinf o'quvchilariga sinfdan tashqari o'qish darslarini inobatga olib, "Hikmatli boylik" hikoyasini<sup>1</sup> tahlilga tortamiz. Hikoyada ikki kishi sayohat qilib yurib, bir g'orga duch kelishgani, g'orning ichida kumush eshikli xonada bir sandiq kumush tanga, tilla eshikli xonadan ham bir sandiq tilla tanga topishibdi. Har ikkala sayohatchi cho'ntaklarini va qo'ynilarini tilla tangaga to'ldirib olishibdi. Ketmoqchi bo'lib turishganida yog'och eshikli xonani ham ko'rib qolibdilar. Bu xonada yog'och sandiq ichida to'la kitoblarni ko'rib, birinchi sayohatchi: "Kitoblarni bunchalik ichkariga yashirishning nima hojati bor edi? Bu sandiq g'orning og'zida tursa ham bo'lar edi"

<sup>1</sup> Tarbiya kitobi 2. Hayot saboqlari. Toshkent, Yurist-media markazi, 2015. – B.53-54

deb orqasiga qaytibdi. Ikkinci sayohatchi esa: "Bu sandiqning ichkariga yashirilishining bir hikmati bo'lsa kerak", deb tillalarni to'kib, kitoblardan ko'targanicha olibdi. Sherigi uning qilgan ishidan kulib, har ikkalasi o'z yo'lida davom etibdi.

Oradan yillar o'tib, tilla olib kelgan odam boy-badavlat bo'lib ketibdi. Kitob olgan odamning esa bolalari kitoblarni o'qib, elga tanilgan olimlar bo'lib yetishibdi. Bu paytda esa ikki sayohatchi keksayib qolgan, tilla olib kelgan odamning bolalari otasining boyligini talashib, bir-birlari bilan urushib, har tomonga tarqab, otasini ham unutishibdi. Kitob olib kelgan odamning bolalari esa otasiga minnatdorchilik bildirib, uni qarigan chog'ida parvarish qilishibdi.

O'quvchilar matn bilan tanishtirilgach, asarning voqealar rivojini, mazmunini, g'oyasini, badiiyatini, shaklini va umumiy xulosasini tahlil asosida o'rganib, bolalarning savodxonlik darajasini aniqlaymiz. O'quvchilarning matnni to'liq, mazmun va g'oyasini kengroq ochtirishga, har bir so'z mohiyatini tushuntirishga, hikoyadan kelib chiqadigan g'oyani anglatishga va to'g'ri xulosa chiqarishlariga yordam berish maqsadida PIRLS test topshiriqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Buning uchun quyidagi test topshiriqlaridan foydalanamiz.

1. "Hikmatli boylik" hikoyasi nima haqida yozilgan?

- A.Boylit
- B.Ilm izlash
- C.Kitob
- D.Sayohat

2. Ikki sayohatchi yo'lda qanday voqealarga duch kelishdi? Hikoya mazmuniga mos keladigan to'g'ri fikrlarni aniqlang.

1. Sayohatchilar yo'lda yovuz jodugarga duch kelishdi.

2. Ular yurib-yurib g'orga duch kelishdi.

3. G'orda kumush, tilla, yog'och eshikli xonalarni ko'ishdi va uy ichini kuzatishdi.

4. G'orda sayohatchilarni qirq qaroqchilar tutib olishdi.

5. G'ordan ko'pgina tilla va kitoblar olib chiqishdi.

6. G'ordan faqat kitob topishdi.

7. Ikki sayohatchilar o'z uylariga ketib, o'z holicha yashashdi.

A.1,2,4,5.

B.2,3,5,7.

C.2,3,6,7

D.1,2,3,5.

3. Kitobni nimaga qiyoslaymiz?

A.Oftob, nur, olam.

B.Hikmat, soya, dur.

- C.Ona, oltin, hikmat.  
 D.Tanga, ziyo, quyosh.  
 4. Birinchi sayohatchchi boyliklarini nima qildi?
- 

5. Ikkinci sayohatchining yo'li to'g'rimi?

---

6. "Kitob" ikkinchi sayohatchiga nima berdi?

---

7. Hikoya mazmuniga mos keladigan to'g'ri fikrlarni aniqlang. Javoblar jadvaliga "HA" yoki "YO'Q" so'zlarini yozing.

1. Hikoyada ikki sayohatchining hayotini tubdan o'zgarishiga sabab bo'lgan g'orga duch kelishdi va har biri o'z hayot yo'lini tanlaydi.
2. Sayohatchilar g'ordagi kumush, tilla tangalarni egallab boyib ketishadi.
3. Ichkari xonaga yashiringan yog'och sandiqdan eng qimmatbaho boylik "kitoblar" chiqadi.
4. Ikkinci sayohatchining g'ordan olgan kitoblari unga va farzandlariga baxtsaodat olib keladi hamda ilm dunyosi eshiklarini ochadi.
5. Birinchi sayohatchchi butun umriga yetadigan boylikni olib, farovonlikda yashaydi, farzandlarini ham baxtli qiladi.
6. Tilla tangalarni olgan sayohatchining farzandlari boylik uchun kurashib, otasini ham unutib, el hurmatidan chiqadi.
7. Sayohatchilar umrining oxirida eng hikmatli boylik - kitob ekanligini anglashadi va xatolarini tushunishadi.

1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.
HA	YO'Q	HA	HA	YO'Q	HA	HA

8. Siz qaysi sayohatchiga o'xshashni xohlaysiz? Nima uchun?

---

9. Hikoya mazmunidan kelib chiqadgan xulosa qaysi javobda berilgan?
- A.Sayohatga chiqib, boylik topib olish va boy-badavlat yashash.
  - B.Boylik uchun ilmdan voz kechish mumkin. Bu johillik emas.
  - C.Yoshi ulug' bo'lган kishilarni hurmat qilish.
  - D.Ilm uchun boylikdan voz kechish mumkin, chunki ilm egasini boy qiladi.
10. Hikoyadan kelib chiqadigan xulosaga mos keladigan o'zbek xalq maqollaridan topib yozing?

Sinfdan tashqari o'qish darsida o'tiladigan bir soat dars davomida o'quvchilarni matn bilan tanishtirish, uning asosiy mazmun-mohiyatini ochish, hikoyadan to'g'ri xulosa chiqarish va uni o'z hayotida tatbiq qilishga o'rgatishda yuqorida berilgan topshiriqlarni bajarish katta foyda beradi. Bunday topshiriqlar o'quvchi bilim faoliyatini kengaytirib, tarbiyalanishiga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.:Sharq nashiriyot matbaa-konserni.23.09.2020. O'RQ-637-son.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi - T.: O'zbekiston. 2019 –49 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining —Xalq ta'lifi tizimida ta'lif sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2018-yil 8- dekabrdagi 997-tonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” 2017-yil 7-fevraldaggi PF-4947-tonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari. – T.: 2017 yil, 6-ton, 70-modda.
5. Boymurodova G., Sattorova X., Muslimova Sh., Kabilova Z., Saydaliyeva G., Karimova F. O'qish: 4-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma -T.:“Sharq”
6. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College. 2019. [www.timssandpirls.bc.edu](http://www.timssandpirls.bc.edu).
8. Международное исследование «Изучение качестве чтения и понимания текста» PIRLS. Основная информатія об исследовании PIRLS. Институт стратегии развития образования Российской академии образования, Центр оценки качества образования. [www.centeroko.ru](http://www.centeroko.ru)
9. <http://timssandpirls.bc.edu/pirls2016/international-results/pirls/summary/> - TIMSS va PIRLS xalqaro o'quv markazi veb-sayti
10. Norboyeva D.Ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalgaloshirish Milliy markazi direktori o'rinosari. 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha o'tkaziladigan xalqaro tadiqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun daftar.